ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARDA NUTQ VA MULOQOT KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK USULLARI

Yo‘ldosheva Zarnigor Ikromjon qizi
Qo‘qon davlat universiteti, Surdopedagogika yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
E-mail: zarnigor323@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda nutq va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik usullari hamda zamonaviy surdopedagogik yondashuvlar yoritilgan. Eshitish qobiliyati cheklangan bolalarning psixofiziologik xususiyatlari, daktilologiya, imo-ishora nutqi, labdan o‘qish hamda vizual-ko‘rgazmali vositalardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida maxsus ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchi 7-10 yoshdagi eshitishi og‘ir va kar bolalar guruhida pedagogik kuzatuv va mashg‘ulotlar o‘tkazildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, kompleks surdopedagogik usullar hamda multisensor yondashuvni (ko‘rish, taktil-vibratsion sezgilarni safarbar etish) qo‘llash bolalarning lug‘at boyligini va muloqotga kirishish faolligini sezilarli darajada oshiradi. Maqolada olingan natijalar maxsus va inklyuziv ta'lim jarayonida pedagog surdopedagoglar, logopedlar hamda ota-onalar uchun amaliy tavsiyalar berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: surdopedagogika, eshitish nuqsoni, daktil nutq, labdan o‘qish, muloqot ko‘nikmalari, multisensor yondashuv, inklyuziv ta'lim, lug‘at boyligi.

Abstract: This article highlights pedagogical methods and modern surdopedagogical approaches to the formation and development of speech and communication skills in children with hearing impairments. The psychophysiological characteristics of hearing-impaired children, the effectiveness of dactylology, sign language, lip-reading, and the use of visual aids are analyzed. During the research, pedagogical observation and corrective exercises were conducted among a group of deaf and hard-of-hearing children aged 7-10 years in special educational institutions. Results indicated that the application of comprehensive surdopedagogical techniques and a multisensory approach (mobilizing visual and tactile-vibrational senses) significantly increases children's vocabulary and communication activity. The findings provide valuable practical recommendations for surdopedagogues, speech therapists, and parents in special and inclusive education.

Keywords: surdopedagogy, hearing impairment, dactyl speech, lip-reading, communication skills, multisensory approach, inclusive education, vocabulary expansion.

KIRISH

Eshitish a'zosining zararlanishi bolaning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishida jiddiy o‘zgarishlarga olib keladi. Nutq — bu nafaqat muloqot vositasi, balki inson tafakkuri, bilish jarayonlari va shaxsiyatining shakllanishida asosiy omildir. Eshitish nuqsoniga ega bolalarda nutqiy muloqotning o o‘z vaqtida shakllanmasligi ularning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini chegaralaydi hamda ijtimoiy moslashuv jarayonini qiyinlashtiradi.

Zamonaviy surdopedagogikaning ustuvor vazifalaridan biri eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning qoldiq eshitish imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish, ularda kompensator mexanizmlarni shakllantirish hamda og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirishdan iboratdir. Mazkur tadqiqotning maqsadi — eshitishi og‘ir va kar bolalarda nutq hamda muloqot ko‘nikmalarini

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

shakllantirishning samarali pedagogik usullari hamda multisensor yondashuv samaradorligini o‘rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini L.S.Vigotskiyning nuqsonni kompensatsiyalash va rivojlanishning yaqin zonasi haqidagi ta'limoti, S.A.Zikov va R.M.Boskis kabi ko‘zga ko‘ringan surdopedagoglarning tuzatish-pedagogik yondashuvlari tashkil etadi. Rivojlanishdagi ikkilamchi nuqsonlarni bartaraf etishda multisensor ta'lim yondashuvi muhim o‘rin tutadi.

Tadqiqot ishida quyidagi pedagogik metodlardan foydalanildi:

1. Pedagogik kuzatuv va diagnostika: Bolalarning muloqotga kirishish faolligi va mavjud lug‘at boyligi baholandi.

2. Daktil va taktil-vibratsion ta'lim usuli: Tovushlar va so‘zlarning talaffuz tuzilishini o‘zlashtirishda daktil (barmoniy) nutq hamda tebranish hissiyotlaridan foydalanildi.

3. Labdan o‘qish (vizual idrok): Suhandoshning artikulyatsiyasini vizual kuzatish orqali og‘zaki nutqni anglash ko‘nikmalari mashq qildirildi.

4. Modellash va syujetli-rolli o‘yinlar: Kundalik hayotiy vaziyatlarni (do‘kon, shifoxona, maktab) taqlid qilish orqali amaliy muloqot ko‘nikmalari shakllantirildi.

NATIJALAR

Maxsus ta'lim muassasasida o‘tkazilgan pedagogik tajriba-sinov mashg‘ulotlari jarayonida bolalarda nutqiy va muloqot ko‘nikmalarining o‘sish ko‘rsatkichlari qayd etildi. Tajriba boshida bolalarning aksariyat qismida muloqot asosan oddiy imo-ishoralar bilan chegaralangan edi.

Multisensor va kompleks surdopedagogik usullarni tatbiq etish natijasida quyidagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi:

• Daktil va og‘zaki nutqni uyg‘unlashtirish orqali bolalarning faol lug‘at boyligi o‘rtacha 35-40% ga kengaydi.

• Labdan o‘qish ko‘nikmalari rivojlanishi evaziga pedagog va tengdoshlarining og‘zaki ko‘rsatmalarini to‘g‘ri anglash darajasi oshdi.

• Syujetli o o‘yinlar jarayonida bolalarda muloqotga kirishishdagi psixologik g‘ovlar bartaraf etilib, ularning ijtimoiy faolligi ortdi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlashda faqat bitta metod (masalan, faqat imo-ishora yoki faqat daktilologiya) bilan cheklanish yetarli emas. Eng yuqori samaradorlik ko‘rish, taktil, vibratsion va qoldiq eshitish idrokini bir paytda safarbar etuvchi kompleks yondashuvda namoyon bo‘ladi.

Talaba va bo‘lajak surdopedagog nuqtai nazaridan ta'kidlash joizki, muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni nafaqat dars mashg‘ulotlarida, balki sinfdan tashqari faoliyatda hamda oilaviy muhitda ham uzluksiz davom etishi shart. Ota-onalarning surdopedagogik bilimlardan xabardorligi tuzatish ishlarining natijadorligini oshiradi.

XULOSA

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda nutq va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish pedagogik mahorat va sabr-toqatni talab etadigan murakkab jarayondir. Daktil nutq, labdan o‘qish va multisensor ta'lim usullarini tizimli ravishda qo‘llash bolalarning og‘zaki hamda yozma nutqini o‘stirishga hizmat qiladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda quyidagi tavsiyalar beriladi:

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

1. Mashg'ulotlarda ko'rgazmali va interaktiv ta'lim vositalaridan foydalanish ko'lamini oshirish.
2. Bolalarning muloqot ehtiyojini rag'batlantiruvchi o'yinli va amaliy situativ mashqlarni ko'proq tashkil etish.
3. Maxsus va inklyuziv ta'lim muassasalarida pedagog, logoped va ota-onalar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Vigotskiy L.S. Sobranie sochineniy: V 6-ti t. T.5. Osnovy defektologii. — M.: Pedagogika, 1983.
2. Zikov S.A. Obuchenie gluxix detey yazyku po prinsipu formirovaniya rechevogo obshcheniya. — M.: APN RSFSR, 1961.
3. Boskis R.M. Gluxie i slaboslyshashchie deti. — M.: Sovetskiy sport, 2004.
4. Mamedov K. Maxsus pedagogika va surdopedagogika asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 2018.
5. Shumatov G.A. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ta'lim-tarbiyalash metodikasi. — Toshkent: Fan, 2020.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.